

## BOLALIK DAVRIDA MUSTAQIL BO‘LISH VA O‘ZIGA NISBATAN ISHONCHNI SHAKLLANISHI

*Normurodova Mahzuna Asqaraliyevna*  
*Surxondaryo viloyati Denov tumani 41-umumiy*  
*o'rta ta'lim maktabi amaliyotchi psixologi*

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada bolalik davrida mustaqillikning shakllanishi, o‘ziga ishonchning rivojlanishi hamda ushbu jarayonga ta’sir etuvchi psixologik va ijtimoiy omillar yoritiladi. Shuningdek, oila va ta’lim muassasasining bu jarayondagi o‘rni tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Bolalik, mustaqillik, o‘ziga ishonch, psixologiya, shaxs rivojlanishi, tarbiya, motivatsiya, ijtimoiy muhit.

### KIRISH

Bolalik davri shaxs shakllanishining eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Aynan shu davrda bolaning mustaqil fikrlashi, o‘z qarorlarini qabul qilish ko‘nikmalari va o‘ziga bo‘lgan ishonchi shakllanadi.

Mustaqillik — bu bolaning kichik vazifalarni o‘zi bajarishi, qaror qabul qilishga intilishi va tashabbus ko‘rsatish qobiliyatidir. Bu jarayon asta-sekinlik bilan rivojlanadi va kattalar tomonidan qo‘llab-quvvatlashni talab qiladi. O‘ziga ishonch esa bolaning o‘z imkoniyatlariga baho bera olishi va yangi vazifalarni bajarishga jur‘at etishida namoyon bo‘ladi. O‘ziga ishonchi yuqori bo‘lgan bola faolroq, tashabbuskor va muvaffaqiyatga intiluvchan bo‘ladi.

Psixologik jihatdan mustaqillik va o‘ziga ishonch o‘zaro chambarchas bog‘liqdir. Bola mustaqil harakat qilgan sari uning o‘ziga ishonchi ortib boradi. Oila muhiti bu jarayonda eng muhim omillardan biridir. Ota-onaning qo‘llab-quvvatlashi, bolaga ishonch bildirish va unga kichik mas’uliyatlar berish mustaqillikni rivojlantiradi.

Lev Vygotskiyning fikricha, bolaning rivojlanishi ijtimoiy muhit va kattalar bilan hamkorlik jarayonida sodir bo‘ladi. Bu esa mustaqillikning shakllanishiga bevosita ta’sir qiladi. Ta’lim muassasasida o‘qituvchi va psixologlar bolaga individual yondashib, uning qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berishi kerak. Rag‘batlantirish va ijobiy baholash bolaning o‘ziga ishonchini mustahkamlaydi.

Shuningdek, o‘yin faoliyati bolalarda mustaqillik va o‘ziga ishonchni shakllantirishning asosiy vositalaridan biridir. O‘yin orqali bola qaror qabul qilish va muammolarni hal qilishni o‘rganadi.

Bolaning asosiy harakat kuchi shu yoshda energiya va intilish bilan olamni o'rganish faoliyati, va uni bosh harakat qilayotgan kuchi esa qiziquvchanlik bo'ladi. Bola endi erkinlik bilan harakat qiladi va yetarli darajada nutqi rivojlanib savol beradi va qabul qilgan javoblarni idrok qiladi. Ota-ona bolaning o'rganish faoliyatini chegaralamasligi o'ta muhimdir, eng xaflisi, E.Eriksonga ko'ra, bolada o'zining qiziquvchanlik va faollik uchun ayibdorlik his-tuyg'ulari paydo bo'lishi mumkin. Keyinchalik bu bolada tashabbuskorlik hissini yo'qolishi chiqarishi mumkin. O'z navbatida, R.Berne bolalarda ijobiy o'z-o'zini baholashni shakllantirishga harakat qilayotgan ota-onalarga bolaning faolligiga o'z munosabatini shunday bildirishni maslahat beradi; unda o'z-o'ziga nisbatan kamsitilganlik munosabati va o'zini jazolash hissi paydo bo'lmasligi zarur. Masalan, o'ziga nisbatan o'ta qiziquvchanlik, kim ekanligini bilish va anglashga intilish ayniqsa o'smirlik davrida rivojlanadi. Bu davrda paydo bo'ladigan «kattalik» hissi qizlarda ham, o'smir yigitlarda ham nafaqat o'ziga, balki o'zgalarga bo'lgan munosabatlarni ham belgilaydi. Qizlardagi «Men» obrazi ko'proq uning ayollik sifatlarini o'zida mujassam eta olishi, ayollikka xos fazilatlarning mavjudligi bilan bog'liq bo'lsa, yigitlardagi «Men» obrazi asosan jismoniy barkamollik mezonlari bilan uyg'unlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Shu sababli o'smirlik davrida o'g'il bolalardagi bo'y pastligi, mushaklarning zaifligi kabi holatlar «Men» obraziga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Qizlarda esa tashqi ko'rinish — go'zallik, kelishganlik, odob va ayollarga xos fazilatlarning mavjudligi yoki yo'qligi «Men» obrazining mazmunini belgilaydi. Qizlarda ortiqcha vazn yoki teridagi ayrim nuqsonlar salbiy hissiyotlarni yuzaga keltirishi mumkin bo'lsa-da, chiroyli kiyimlar, taqinchoqlar va soch turmagi kabi omillar bu kamchiliklarni yumshatib ko'rsatadi.

#### **«Men» obrazi va o'z-o'ziga baho**

«Men» obrazi asosida shaxsda o'z-o'ziga nisbatan baholash tizimi shakllanadi. Bu tizim ham obrazga mos ravishda turlicha bo'lishi mumkin. O'z-o'ziga berilgan baho ko'pincha boshqalarning real munosabatlariga bog'liq bo'lsa-da, u shaxs ongidagi mezonlar va ularning subyektiv baholanishi asosida shakllanadi. Masalan, maktabda bir o'qituvchining ijobiy munosabati va maqtovi o'quvchining o'ziga bo'lgan bahosini oshirishi mumkin, boshqa bir o'qituvchining salbiy munosabati esa har doim ham uni pasaytirmasligi mumkin.

O'z-o'ziga baho shaxsning tajribasi, yutuqlari va orttirgan ko'nikmalariga qarab o'zgarib turadi. U ba'zan oshishi, ba'zan esa pasayishi mumkin. O'z-o'ziga baho adekvat (haqiqatga yaqin), past yoki haddan yuqori bo'lishi mumkin. Past o'z-o'ziga baho ko'pincha tushkunlik, ijtimoiy chetlashish va ishonchsizlikni keltirib chiqaradi hamda salbiy xulq-atvor shakllanishiga olib kelishi mumkin. Haddan yuqori baho esa shaxsda ortiqcha ishonch, real imkoniyatlarni noto'g'ri baholash va qiyinchiliklardan qochish kabi holatlarni yuzaga keltiradi.

O‘z-o‘ziga past baho ko‘pincha atrofdagilarning haddan ortiq talabchanligi, doimiy tanqid, muvaffaqiyatsizliklar va qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi natijasida shakllanadi. Shu sababli yoshlar tarbiyasida ularning referent guruhini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

O‘z-o‘zini baholash ijtimoiy hodisa bo‘lib, uning mazmuni jamiyatda qabul qilingan qadriyatlar va normalarga bog‘liqdir. Yuksak o‘z-o‘zini baholash esa jamiyatning umumiy qadriyatlarini o‘zlashtirish orqali shakllanadi.

### **O‘z-o‘zini boshqarish mexanizmlari**

O‘z-o‘zini boshqarishning asosiy mexanizmlariga quyidagilar kiradi:

- o‘z-o‘ziga ishonish — o‘z imkoniyatlari va kuchiga tayanish;
- o‘z-o‘ziga buyruq berish — murakkab vaziyatlarda o‘zini boshqarish;
- autosuggestiya — ijtimoiy normalar asosida ijobiy ustanovkalarni shakllantirish;
- ichki intizom — xulq-atvorni doimiy nazorat qilish va tartibga solish.

Bu jarayonda ichki dialog muhim o‘rin tutadi.

### **Ichki dialog**

Ichki dialog — shaxsning o‘zi bilan o‘zi muloqot qilishidir. Bu ko‘nikma tashqi muloqotlar asosida shakllanadi va shaxsning o‘zini boshqarishida muhim rol o‘ynaydi. Ichki dialog orqali inson o‘z xatti-harakatlarini tahlil qiladi va to‘g‘ri qarorlar qabul qiladi.

Ba’zi insonlar tanqidni xolis qabul qilib, undan to‘g‘ri xulosa chiqara oladi, boshqalari esa kichik xatolarni ham og‘ir qabul qiladi.

Ichki dialog bilan bog‘liq asosiy tushunchalar:

1. O‘z-o‘zini tarbiyalash omillari va mexanizmlari
2. O‘z-o‘zi bilan muloqot
3. O‘z-o‘zini ishontirish
4. O‘z-o‘ziga buyruq berish

### **Psixik rivojlanish**

Rivojlanish jarayonida nafaqat bilim va faoliyat usullari o‘zgaradi, balki bolaning shaxsiy xususiyatlari ham shakllanadi. Bola turli harakatlarni bajarishni o‘rganadi, bilim va tasavvurlari kengayadi.

Shaxsiy yo‘nalganlikning rivojlanishi uch turga bo‘linadi:

- ta’limga yo‘nalganlik (yaxshi o‘qish, baho olish),
- bilim olishga yo‘nalganlik (masalalarni hal qilish),
- ijtimoiy munosabatlarga yo‘nalganlik.

Ong va fikrlash rivojlanishi esa oddiydan murakkabga tomon o‘zgaradi. Bola dastlab predmetlarni oddiy idrok qiladi, keyinchalik esa abstrakt fikrlash shakllanadi.

Bolalik davrida predmetli faoliyat, o‘yin, rasm chizish va nutqning rivojlanishi aqliy taraqqiyot uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Avtodidaktik o‘yinchoqlar (kubchalar, mozaika, matryoshkalar va boshqalar) bolalarning rivojlanishini tezlashtiradi.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bolalik davrida mustaqillik va o‘ziga ishonchning shakllanishi shaxs kamolotining asosiy poydevoridir. Bu jarayonda oila, maktab va ijtimoiy muhitning hamkorligi muhim ahamiyatga ega

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Po‘latxo‘jayeva M.R. Defektologiyaning klinik asoslari-T. 2012 yil
2. L.R. Mo‘minova, Sh.M. Amirsaidova, Z.N. Mamarajabova, M.U. Xamidova, D.B. Yakubjanova, Z.M. Djalolova, N.Z. Abidova, Maxsus psixologiya-T. 2013 yil
3. M. Ayupova “Logopediya” 2007 yil
4. “Logopediya” (L.S. Volkova tahriri ostida) –M
5. ziyo.net